

## Sayyorai Jahon

### "Firoq"

Visit "[Firoq](#)" on [MotoLyrics.com](#)

Ishq deding, adashdim cho'lingda,  
Cho'mildim hijronli ko'lingda. (2x)

Sevgining neligin bilolmay,  
Intizor yig'ladim yo'lingda. (2x)

Sen oysan, osmonga termilib,  
Yuragim qon bo'ldi tilinib. (2x)  
Men hamon yashayman, yolg'izim,  
Borimni o'zingga ilinib. (2x)

O'zingni o'ylasam o'rtanib,  
Seni deb yashadim o'zgarib. (2x)  
Ketmagin olovga tashlab, yor,  
Tushungin, qolganman o'rganib. (2x)

O-o-o! Yor-ey!  
Farog'at qasri ham buzilsa,  
Sog'inchim marjondek tizilsa, (2x)  
Chidolmas, yuragim bermas dosh,  
O'rtada rishtamiz uzilsa. (2x)

Ishq deding, adashdim cho'lingda,  
Cho'mildim hijronli ko'lingda! (2x)

Ishq deding, adashdim cho'lingda,  
Cho'lingda! cho'lingda..

Visit [Sayyorai Jahon](#) page on [MotoLyrics.com](#), to get more lyrics and videos.